

Raximova Gulshanoy Sharobidin qizi

hanoyqobuljonova@gmail.com

INGLIZ TILIDAGI SIFATDOSHLI KONSTRUKSIYALAR VA O'ZBEK TILIDAGI MUQOBILLARINING IZOMORFIK VA ALLOMORFIK JIHLTLARI

Annotatsiya: Quyidagi maqolada ingliz tilidagi sifatdosh hosil qiladigan predikativ konstruktsiyalarning o'zbek tilshunosligidagi muqobillari bilan o'xshash va noo'xshash jihatlari misollar yordamida qiyoslab tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: izomorfizm, allomorfizm, predikativ, konstruktsiya, sifatdosh, nominativ.

Abstract: In the following article, the similar and dissimilar aspects of predicative constructions formed with participles in English and their alternatives in Uzbek linguistics are compared and analyzed using examples.

Key words: isomorphism, allomorhism, predicative, construction, participle, nominative.

Аннотация: В данной статье на примерах сравниваются и анализируются сходные и несходные аспекты причастных конструкций, образующих прилагательные в английском языке, и их альтернативы в узбекском языкознании.

Ключевые слова: изоморфизм, алломорфизм, предикатив, конструкция, причастные, именительный.

Kirish. Tillarni qiyoslab o'rganishda ularning o'zaro o'xshash hamda noo'xshash jihatlarni tahlil qilish tilshunoslikning muhim ahamiyatga ega bo'lgan qismi hisoblanadi. Tillardagi o'xshash hamda noo'xshash xususiyatlar o'zaro bir-biridan genetik jihatdan yiroq bo'lgan tillarda yanada ko'proq namoyon bo'ladi. Ingliz hamda o'zbek tillari ham o'zaro boshqa-boshqa til oilalariga mansub bo'lganligi tufayli bir qator farqli va o'xshash xususiyatlarga ega. Bu jihatlarni tilshunoslikda izomorfik va allomorfik jihatlari deb ataymiz.

Sifatdosh hosil qiluvchi predikativ qurilmalarning ingliz va o'zbek tillaridagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rib chiqishdan avval tilshunoslikdagi izomorfizm va allomorfizm tushunchalari ta'rifini keltirib o'tishni joiz.

Adabiyotlar sharhi. Izomorfizm tushunchasi dastavval, XX asrning o'rtalarida polyak tilshunosi Yerzi Kurilovich tomonidan "Izomorfizm haqida tasavvur" nomli maqolasida ishlatilgan¹. *Izomorfizm* atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, "Izo"- "o'xshash", "Morfo"- "shakl" degan ma'nolarni anglatadi.

Tilshunos olim P.S.Nobikov ta'kidlashicha, agar ikki sistema elementlari o'rtasida o'zaro bir xil o'xshashliklar mavjud bo'lsa, ularni izomorf sistemalar deb atash mumkin. Izomorfizm munosabati refleksiv, simmetrik va tranzitiv bo'ladi.

¹ Курйилович. Понятие изоморфизма очерки по лингвистике.: — Москва, 1962г ст. 167

Yana bir lingvist E.A.Makayev izlanishlariga ko‘ra, izomorfizm turli darajadagi til birliklari tuzilishi ya‘ni turli darajadagi til birliklari o‘rtasidagi munosabatlarning bir xilligini keltirib chiqaradi².

Allomorfizm tushunchasi haqida so‘z yuritiladigan bo‘lsa bu termin izomorfizmga mutlaqo zid bo‘lgan tushuncha bo‘lib, tillardagi farqli jihatlarni ko‘rsatadi.

Allomorfizm tushunchasiga ko‘plab tilshunoslar turlicha yondashganlar. Jumladan, O.Shemshurenko o‘z tadqiqot ishlarida allomorfizmga quyidagicha ta‘rif beradi, allomorfizm murakkab bog‘langan konstruksiyalarni tashkil etuvchi komponentlarning konstruktiv xususiyatlarini solishtirganda kuzatiladi.³

O‘zbek tilshunoslaridan A.Abduazizov “Tilshunoslik nazariyasiga kirish” kitobida allomorfizm haqida shunday deydi, tillarni qarindoshligini hisobga olmay, qiyoslaganda, ulardagi farqlanishlarni “*allomorfizm*” deyiladi⁴.

Metodologiya. Xulosa qiladigan bo‘lsak, izomorfizm o‘xshash obyektga ega bo‘lgan tuzilmalar o‘rtasidagi munosabat. Quyida ingliz va o‘zbek tillaridagi sifatdoshli predikativ qurilmalarning *izomorfik* jihatlarni ko‘rib chiqamiz:

- a) har ikki tillar grammatikasining shakllanishida sifatdosh, ayniqsa sifatdoshlik qurilmalar muhim hisoblanadi, shuning uchun har ikki tilda ham qurilma tushunchasi tahlil talab mavzu bo‘lib qolmoqda;
- b) o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham sifatdosh I va II mavjud bo‘lib, ikkala turi ham sintaktik birlik sifatida xizmat qiladi;
- c) qiyoslanayotgan ikki tilda ham sifatdoshlar fe‘l so‘z turkumida hosil qilinadi;
- d) tadqiq qilinayotgan o‘zbek va ingliz tillarida sifatdoshning har ikki turi ham shaxssiz fe‘llar turkumiga kiradi;
- e) sifatdoshlar shaxssiz fe‘llar turkumiga kirganligi tufayli shaxs tufayli son kategoriyalarini ko‘rsatib kelmay, balki zamon, nisbat va aspekt grammatik kategoriyalarini har ikki ingliz va o‘zbek tillari grammatikasida ham ko‘rsatib keladi;
- f) har ikki tilda ham sifatdoshlik qurilmalar yuklab kelayotgan ma‘no qurilmada ishtirok etayotgan fe‘llarning ma‘no turlari bilan o‘zaro bog‘liq. Ya‘ni, sifatdoshli qurilmalar ikki tilda ham sezgi – idrok yoki aqliy – faoliyat, his - tuyg‘u, xohish – istak kabi ma‘no yuklovchi fe‘llar yordamida shakllansa, ushbu fe‘llar ma‘nosini o‘zida ifodalaydi;
- g) qiyoslanayotgan ikki tilda ham sifatdoshlar ishtirokidagi qurilmalar sintaktik jihatdan ko‘proq hol vazifasini bajaradi;
- h) obyektiv sifatdoshli qurilmalar har ikki tilda bir xil sintaktik vazifani ya‘ni murakkab to‘ldiruvchini ifodalaydi.

Chog‘ishtirma tilshunoslikda sifatdoshlik predikativ qurilmalar ingliz va o‘zbek tilidagi muqobillari bilan qiyoslab o‘rganilganda, sezilarli allomorfik jihatlarga ega:

² Макаев. Е.А. К вопросу об изоморизме.: — Москва, 1961, ст 5

³ О.Шемшуренко. Изоморфизм и алломорфизм сложноподчиненного предложения в русском, английском и турецком языках.: — Казань, 2012 б. 67

⁴ А.А.Абдуазизов. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.: — Toshkent; 2010, b. 146

- a) dastavval hisobga olinishi joiz deb topilgan noo'xshash jihati ingliz tilida sifatdoshli qurilmalar mavzusi mavjud bo'lib, ular to'rt turga bo'linib o'ziga xos jihatlarga ega bo'lsa, o'z tili grammatikasida esa aynan sifatdoshli qurilmalar deb nomlanuvchi tushuncha mavjud emas. Shuning uchun dissertatsiya ishimiz davomida ingliz tilidagi sifatdoshli qurilmalarni o'zbek tilidagi aynan sifatdoshlarning o'zi bilan qiyoslab olib bordik;
- b) ingliz tilida sifatdoshli qurilmalarning har bir turi maxsus qoliplar asosida ishlatilsa, o'zbek tilida sifatdoshlarning o'zi gaplardagi vazifasi jihatidan turli gap bo'laklari bilan birikma hosil qilishi mumkin.
- c) sifatdoshli qurilmalar shakllantirayotgan ma'noga kelsak, ingliz tilida bu qurilmalar ma'lum bir ma'no turiga kiruvchi fe'llar bilan qo'llanilsa, ana shu fe'llar yuklayotgan ma'noni yuklaydi. O'zbek tilida esa aynan bu ma'no sifatdoshlar orqaligina emas, balki boshqa shaxssiz fe'llar yordamida ifodalanishi mumkin;
- d) qiyoslanayotgan ikki tilda ham Sifatdosh I va II mavjud, ammo o'zbek tilida har ikki turi ham otlashsa, ingliz tilida faqat Sifatdosh II gina otlashadi;
- e) ingliz tilida sifatdoshli qurilmalardan Mutlaq nominativ sifatdoshli qurilmalar sintaktik jihatdan soda gapdagi payt, sabab, vaziyat hamda shart ma'nolarini ko'rsatuvchi hol vazifasida kelsa, o'zbek tilida bu ma'nodagi gaplar sabab, shart ma'nolaridagi ergash gapli qo'shma gaplar orqali ifodalanadi;
- f) ilmiy ishimizning yuqoridagi qismlarida aytib o'tilgandek, ingliz tilida bunday qurilmalarning bir turi borki, ularda gapda sifatdosh tushib qoladi, ammo tarjimada sifatdosh ma'nosi ishlatiladi, ya'ni sifatdosh ishtirokisiz predikativ qurilmalar. O'zbek tilida esa bunday tushib qolish, ammo ma'no saqlash holatlari uchraydi lekin sifatdoshlar bilan emas, ya'ni sifatdoshga xos holat emas deb hisoblaymiz;
- g) sifatdoshli qurilmalar ingliz tilida ko'rsatayotgan pay tholi vazifasini bajarganda, bu holatlar o'zbek tilida payt holini hosil qiluvchi ravishdosh orqali ifodalanadi;
- h) sifatdoshli qurilmalarning tarjima jihatiga keladigan bo'lsak, ingliz tilidagi bu qurilmalar o'zbek tiliga tarjima qilinganda asosan, qo'shma gapga aylanib qoladi. Bu holatni ishimizning keying qismida misollar yordamida dalillaymiz.

Xulosa. Ikki tildagi sifatdoshlarning o'zaro bir-biri bilan o'xshash bo'lgan izomorfik jihatlarni yuqoridagilar bilan chegaralay olmaymiz. Bu o'xshash jihati hali hanuz tilshunoslar tomonidan izlanilish obyekti bo'lib qolmoqda.

Ko'rinadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi sifatdoshli qurilmalar umumiy va xususiy jihatlari mavjud, ya'ni bunday izomorfik va allomorfik jihatlar tillarning o'ziga xosligini belgilab beruvchi omillar sifatida xizmat qiladi. Bunday o'xshash hamda no'xshash holatlarning yuzaga chiqishi ushbu mavzuda, ya'ni sifatdoshli konstruksiyalarni nafaqat bit til kesimida, balki qiyoslangan holda ikki til materiallari asosida, ayniqsa o'zbek tili grammatikasiga qiyoslangan holda ko'proq izlanishlar olib borilishi kerakligini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.A.Abduazizov. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.: — Toshkent; 2010, b. 146
2. M. Davlatjonova, & G. Rakhimova (2023). POSITIVE EFFECTS OF THE BIOLOGICAL FACTOR ON WORK PERFORMANCE UNDER THE LEADERSHIP OF WOMEN AND GIRLS. Science and innovation, 2 (B11), 606-609. doi: 10.5281/zenodo.10232008
3. Mirzayeva, D., & Rakhimova, G. (2023, December). VERBIDS IN ENGLISH AND THEIR ALTERNATIVES IN UZBEK. In Fergana state university conference (pp. 101-101).
4. Raximova, G., & Tursunboyeva, H. (2024). ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFATDOSHLI KONSTRUKSIYALARNING SINTAKTIK

VAZIFALARI. Fergana State University Conference. Retrieved from <https://conf.fdu.uz/index.php/conf/article/view/3357>

5. Курйилович. Понятие изоморфизма очерки по лингвистике.: — Москва, 1962б ст. 167
6. Макаев. Е.А. К вопросу об изоморизме.: — Москва, 1961, ст 5
7. О.Шемшуренко. Изоморфизм и алломорфизм сложноподчиненного предложения в русском, английском и турецком языках.: — Казань, 2012 б. 67